

ANEMIYADA ORGANLAR MORFOLOGIK O'ZGARISHLARI

Hamroyeva N.U

*ToshDTU, Tibbiy pedagogika va davolash fakulteti,
davolash ishi yo'nalishi . 207-guruh*

Shag'iyazova L M

*Ilmiy rahbar: ToshDTU, Anatomiya, gistologiya,
patologik anatomiya kafedrası assistenti*

Dolzarbliği: *Anemiya organizimda eng ko'p uchraydigan patalogik holatlardan biri bo'lib ,gemoglobin va eritotsitlar miqdorining kamayishi bilan xarakterlanadi.Natijada to'qimalarga kislorod yetkazib berilishi buzilib ,umumiy gipoksiya rivojlanadi.Gipoksiya esa hujayra va to'qimalarda modda almashinuvining izdan chiqishiga ,ichki organlarda esa turli morfologik va funksional o'zgarishlarining yuzaga kelishiga olib keladi .Shu sababli anemiyada patologik-anatomik o'zgarishlarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.*

Maqsadi: *Anemiya sharoitida organizmning turli organ va to'qimalarda yuzaga keladigan morfologik o'zgarishlarni aniqlash ,ularning rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish hamda patologik jarayonlarining kechishini baholash va anemiya sharoitida organizmning turli organ va to'qimalarda yuzaga keladigan patalogik-anatomik o'zgarishlarini kompleks o'rganish , kelib chiqish sabablari gipoksiya bilan bog'liq strukturaviy va funksional buzilishlarini baholash hamda ushbu o'zgarishlarining klinik ahamiyatini yoritish*

Materiallar va qo'llanilgan usullar: *Anemiya natijasida organizimda umumiy gipoksiya rivojlanadi. Bu holat birinchi navbatda teri va shilliq qavatlarining oqarishi bilan namoyan bo'ladi . Suyak iligida kompensator ravishda eritropoez kuchayib,qizil suyak iligi giperplaziyasi kuzatiladi.Yurak mushagida kislorod yetishmovchiligi tufayli yog'li degeneratsiya va miokart distrofiyasi rivojlanadi .Jigar va taloqda esa gemoliz kuchayganda gemosiderin to'planishi aniqlanadi.Taloq kattalashib ,unda retikuloendotelial tizim faolligi ortadi.*

Buyraklarda gipoksiya natijasida distrofik o'zgarishlar yuzaga kelib, naychalar epiteliyida shikastlanishlar kuzatiladi .

Miya to'qimasida esa kislorod tanqisligi tufayli funksional buzilishlar ,og'ir hollarda esa nekrotik o'zgarishlar rivojlanishi mumkin.

Shuningdek, uzoq davom etgan anemiyada barcha organ va to'qimalarda degenerativ va distrofik jarayonlar kuchayib ,ularning funksional faoliyati pasayadi.

Tadqiqot davomida patologik anatomiya va gistologiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar ,klinik kuzatuvlar hamda laboratoriya ma'lumotlari tahlil qilindi.

Morfologik o'zgarishlar makroskopik va mikroskopik darajada o'rganildi.

Xulosa:

Anemiya organizmning barcha organ va tizimlariga ta'sir ko'rsatib, ularda chuqur morfologik va funksional o'zgarishlarining yuzaga keltiradi .

Ayniqsa ,yurak,jigar,taloq va suyak iligida sezilarli patologik jarayonlar kuzatiladi.Ushbu o'zgarishlarning asosida gipoksiya muhim o'rin egallaydi .

Anemiyani erta aniqlash va samarali davolash orqali og'ir asoratlarini oldini olish mumkin.